



**ABU ALI IBN SINO NOMIDAGI BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI  
SOG'LIQ BILIMLARI UNIVERSITETI BUXORO IBN SINO TIBBIYOT  
FAKULTETI  
BALIKESIR UNIVERSITETI**

*O'zbekistonning Abu Ali ibn Sino nomidagi Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti, Turkiyaning Sog'liq Bilimlari Universiteti va Balikesir Universiteti hamkorligida 2025 yilning 16-18 may kunlari "Tibbiyot sohasida til va adabiyotning ahamiyati" mavzusida xalqaro simpozium o'tkaziladi.*

*Tibbiyot, adabiyot, til va tibbiyot tarixi sohalarida tadqiqot olib borayotgan akademiklar ishtirok etishga taklif qilinadi.*

## **A) SIMPOZIUMNING MAQSADI**

Simpoziumning maqsadi asosan o'zbek va turk tillarida sog'liq bilan bog'liq lug'at ishlari, adabiy matnlarda sog'liq mavzusining yoritilishi, Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asarlari va qarashlari kabi mavzularda ilmiy hissa qo'shishdir.

## **B) SIMPOZIUM MAVZULARI**

- O'zbek va turk tillarida sog'liq sohasidagi lug'at ishlari,
- Adabiy matnlarda sog'liq mavzusining yoritilishi,
- Ibn Sinoning tibbiyot sohasidagi asarlari va qarashlari,
- Sog'liq haqida yozilgan filologik asarlarning tahlili,
- Sog'liq tili haqida o'zbek va turk tillarida olib borilgan tadqiqotlar,
- Turk tilida sog'liq bilan bog'liq terminologiyaning rivojlanishi,
- Turk tilini chet elliklarga o'rgatishda sog'liq sohasi ehtiyojlari,
- Tibbiyot tilini soddalashtirishga oid qarashlar,
- Asosiy kasbi shifokor bo'lgan adiblar va ularning tarjimai hollari,
- Umumiy turkiy tillarda sog'liq sohasiga oid so'zlarning etimologik kelib chiqishi,
- Xalq madaniyatida tibbiyot va boshqalar.

Ushbu mavzular doirasidan tashqaridagi sog'liq sohasida til va adabiyot bo'yicha ishlanmalar ham baholash komissiyasining qaroriga ko'ra simpozium dasturiga qo'shilishi mumkin.

## **C) TAQDIMOT TILLARI**

Simpoziumning asosiy taqdimot tillari o'zbek va turk tillaridir. Shu bilan birga, ingliz, rus va boshqa turkiy tillarda yozilgan ma'ruzalar ham qabul qilinadi.

## **D) TAQDIMOT SHAKLI**

Simpozium aralash (gibrid) formatda o'tkaziladi. Ya'ni, ham yuzma-yuz, ham onlayn sessiyalar tashkil qilinadi. Ishtirokchilar ariza topshirish vaqtida qaysi formatda taqdimot qilishlarini ko'rsatib o'tishlari kerak. Yuzma-yuz taqdimotlar Sog'liq Bilimlari Universitetining Buxoro Ibn Sino Tibbiyot Fakulteti (O'zbekiston) belgilagan sessiya zallarida bo'lib o'tadi.

## E) ARIZA BERISH VA ALOQA

Arizalar **diledebiyatsaglik.com** veb-sayti orqali topshiriladi. Qo‘shimcha ma‘lumot uchun **ensar.kilic@sbu.edu.tr** elektron pochta manziliga murojaat qilishingiz mumkin.

## F) SIMPOZIUM MA‘RUZALARINING NASHR ETILISHI

Simpozium yakunlanganidan so‘ng to‘liq matnlar DOI raqamlari belgilangan holda elektron kitob formatida nashr etiladi. Bundan tashqari, maqolalar xalqaro OpenAIRE indeksida qidiruvga qo‘yiladi.

## G) ANNOTATSIYA (ABSTRACT) YOZISH QO‘LLANMASI

### 1. UMUMIY YOZISH QOIDALARI

- **Uzunligi:** Annotatsiyalar 150-300 so‘z orasida bo‘lishi kerak.
- **Shrift va o‘lchami:** Times New Roman, 11 o‘lcham.
- **Paragraflar:** Bitta blok paragraf sifatida yozilishi lozim.
- **Barcha maqolalar uchun ingliz tilida annotatsiya bo‘lishi shart.**
- **Annotatsiyalar veb-saytdagi shakl to‘ldirilgan holda yuborilishi lozim.** Elektron pochta orqali qabul qilinmaydi.

### 2. MAZMUN

- **Maqsad:** Tadqiqotning asosiy maqsadini qisqa va aniq bayon qiling.
- **Usul:** Tadqiqotda qo‘llangan asosiy metodlarni ko‘rsating.
- **Natijalar:** Muhim natijalarni umumlashtiring.
- **Xulosa:** Tadqiqotdan chiqarilgan asosiy natija yoki ilmiy hissani bayon eting.

### 3. SARAVHALAR VA KALIT SO‘ZLAR

- **Sarlavha:** Maqolani ifodalovchi sarlavha 12 so‘zdan oshmasligi, aniq va tushunarli bo‘lishi kerak.
- **Kalit so‘zlar:** Maqolaning mazmunini ifodalovchi 3-5 ta kalit so‘z tanlanishi lozim. Kalit so‘zlar **alfavit tartibida** yozilishi, birinchi kalit so‘zning bosh harfi katta, qolganlari kichik harflarda yozilishi kerak.

### 4. E‘TIBOR BERILISHI KERAK BO‘LGAN NUQTALAR

- **Mantiqiy ketma-ketlik:** Qisqa maqola bog‘langan va mantiqiy tartibda yozilishi kerak.
- **Til va yozish:** Akademik va rasmiy uslubga rioya qilinishi, imlo va grammatik xatolardan qochish lozim.
- **Ixchamlik:** Keraksiz tafsilotlardan qochish va aniq, tushunarli bayonotga urg‘u berish kerak.

## H) MAQOLA (FULL TEXT) YOZISH QOIDALARI

### 1. UMUMIY YOZISH QOIDALARI

- **Sahifa tuzilishi:**
  - **Chegara o'lchami:** Har tomonlama 2 sm.
  - **Sahifa o'lchami:** Statement (13,97 sm x 21,59 sm).
  - **Shrift va o'lchami:** Times New Roman, 11 o'lcham.
  - **Qator oralig'i:** 1,15 qator oralig'i.
  - **Paragraflar:** Paragraf boshlari bo'sh qoldirilmaydi, faqat bo'sh joy tashlanadi.
- **Sarlavhalar:**
  - **Asosiy sarlavha:** Qalin, chapga yo'naltirilgan va hamma harflar katta yoziladi.
  - **Quyí sarlavhalar:** Chapga yo'naltirilgan, qalin, faqat bosh harflar katta.
  - **Sarlavhalar raqamlanmaydi.**
- **Sahifa raqamlari:** Kiritilmaydi.
- **Til va yozish:**
  - Akademik til ishlatilishi lozim.
  - Imlo va tinish belgilari qoidalariga rioya qilinishi kerak.

### 2. MATN ICHIDA MANBA KO'RSATISH QOIDALARI

- **Yagona muallif:**
  - Misol: (Yilmaz, 2020, s.25)
- **Ikki muallif:**
  - Misol: (Demir & Kaya, 2019, s.105-107)
- **Uch yoki undan ortiq mualliflar:**
  - Misol: (Arslan vb., 2018, s.64)
- **To'g'ridan-to'g'ri iqtiboslar:**
  - **40 so'z gacha** bo'lgan iqtiboslar matn ichida qo'shtirnoq bilan beriladi.
  - **40 so'zdan uzun** bo'lgan iqtiboslar alohida paragraf shaklida blok sifatida beriladi va qo'shtirnoq ichiga olinadi.
- **Ikkinchi darajali manbalar:**
  - Misol: (mahz. Gül, 2021, s.1-5)

### 3. ADABIYOTLAR RO'YXATI QOIDALARI

- **Sarlavha:** "Adabiyotlar" sarlavhasi sahifaning o'rtasida qalin yoziladi.
- **Umumiy format:**
  - **Muallifning familiyasi, ismining bosh harfi.** (Yil). **Asar nomi.** Nashriyot.  
<https://doi.org/xx.xxx>
- **Kitob manbasi:**
  - Misol: Erdem, H. (2015). *Zamonaviy ilmiy tadqiqot uslublari*. Istanbul: Akademik Nashr.
- **Maqola manbasi:**
  - Misol: Yilmaz, Sh., & Kaya, A. (2020). *Ijtimoiy fanlarda innovatsion yondashuvlar*. Ilmiy Tadqiqotlar Jurnalí, 45(2), 123-145.  
<https://doi.org/10.12345/bad.2020.45>
- **Veb-sayt manbasi:**
  - Misol: Turk Statistika Qo'mitasi. (2021). *Yillik aholi o'sish ko'rsatkichlari*.  
<https://www.tuik.gov.tr>

#### 4. JADVAL VA GRAFIK QOIDALARI

- **Jadval va grafik sarlavhalari:**
  - Har bir jadval yoki grafik uchun **raqam va tushuntiruvchi sarlavha** berilishi lozim (Jadval 1, Grafik 2 kabi).
  - Misol: **Jadval 1: Xaritasi (Sancar, 2010)**
- **Izohlar:**
  - Jadval yoki grafik ostida qisqa tushuntirish berilishi mumkin.
- **Manba ko'rsatish:**
  - Agar jadval yoki grafik boshqa manbadan olingan bo'lsa, manba jadval yoki grafik ostida ko'rsatilishi kerak.

#### 5. YUBORISH FORMATI VA QOIDALARI

- **Fayl formati:** Microsoft Word (.docx).
- **Fayl nomi:** "MuallifIsmi\_Familiyasi\_Simpozium2025.docx" ko'rinishida bo'lishi lozim.
- **Oxirgi topshirish sanasi:** Simpozium tomonidan e'lon qilingan muddatga rioya qilinishi shart.
- **Elektron pochta mavzusi:** "Simpozium Maqola Yuborish: [Muallif Familiyasi]"
- **To'liq maqola yuboriladigan elektron pochta:** ensar.kilic@sbu.edu.tr

#### 6. ETIK QOIDALAR

- **Original tadqiqot:** Barcha ishlanmalar original bo'lishi va ilgari chop etilmagan bo'lishi kerak.
- **Plagiatdan qochish:** Barcha manbalar to'g'ri ko'rsatilishi kerak.
- **Etik komissiya roziligi:** Agar tadqiqot inson yoki hayvon ishtirokida o'tkazilgan bo'lsa, mos ravishda etik komissiya roziligi hujjati taqdim etilishi kerak.

Ushbu qo'llanma APA 7 standartlari asosida tayyorlangan. Savollar yuzasidan simpozium kotibiyatiga murojaat qilishingiz mumkin.

#### I) MADANIY TADBIRLAR

Simpozium doirasida Buxoro va Samarqand shaharlariga sayohat rejalashtirilgan. Biroq, Samarqandga sayohat talabga bog'liq bo'ladi. Tafsilotlarni veb-saytimizdan bilib olishingiz mumkin.

#### J) MUHIM SANALAR

- **Annotatsiyalarni topshirish uchun so'nggi sana:** 2025 yil 15-mart
- **Qabul qilingan ma'ruzalar haqida e'lon:** 2025 yil 20-mart
- **To'liq matnlarni topshirish uchun so'nggi sana:** 2025 yil 30-aprel
- **Simpozium sanasi:** 2025 yil 16-18 may